



XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 3 - iyul

VI-76-64-10-0-K/23

Toshkent viloyati hokimiligi

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 5-iyundagi “Viloyat hududida yer maydonlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishi va kompensatsiya berish ishlarini muvofiqlashtirish to‘g‘risida”gi VI-75-51-10-0-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi “Yer maydonlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi 781-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 16-noyabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasining namunaviy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 431-IV-sonli qarori, Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil 23-fevraldagi “Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasi reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-69-9-10-0-K/23-sonli qaroriga, Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil 5-iyundagi “Viloyat hududida yer maydonlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishi va kompensatsiya berish ishlarini muvofiqlashtirish to‘g‘risida”gi VI-75-51-10-0-K/23-sonli qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Maxmudovning

bildirgisi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hududida yer maydonlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi va kompensatsiya berish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha komissiyasi tarkibiga kiritilgan o'zgartirishlar **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil 5-iyundagi "Viloyat hududida yer maydonlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi va kompensatsiya berish ishlarini muvofiqlashtirish to'g'risida"gi VI-75-51-10-0-K/23-sonli qarorining 1-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha doimiy komissiyasi raisi Muradjan Nasirov hamda viloyat hududida yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi va kompensatsiya berish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha komissiyasi raisi Axmadali Xudayberganov zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari viloyat
kengashi raisi**



Z.Mirzayev

Xalq deputatlari Toshkent
viloyat Kengashining
2023-yil 3-iyuldagi
VI-76-64-10-0-K/23-son
qaroriga
1-ilova

**Viloyat hududida yer maydonlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari
uchun olib qo'yilishi va kompensatsiya berish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha
KOMISSIYA TARKIBI**

№	F.I.SH		Lavozimi
1.	A.Xudayberganov	—	Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati, <i>komissiya raisi</i>
2.	A.Djurayev	—	Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati, <i>komissiya raisi o'rinbosari</i>
A'zolari			
3.	M.Nasirov	—	Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati
4.	M.G'ulomov	—	Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati
5.	M.Ubaydullayev	—	Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati
6.	F.Axmedjanov	—	Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati
7.	V.Li	—	Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati
8.	D.Usmonova	—	Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati
9.	Sh.Soatov	—	Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati
10.	A.Zoxidov	—	Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati
11.	I.Xolmatov	—	O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi Toshkent viloyati hududiy bo'linmasi boshlig'i
12.	U.Boybulov	—	O'zbekiston iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasining viloyat bo'limi rahbari
13.	Y.Yakubjonov	—	O'zbekiston nogironlar jamiyatining Toshkent viloyati hududiy bo'linmasi boshlig'i
14.	A.G'aniyev	—	Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hududlarini rivojlantirish va investitsiya dasturlarini shakllantirish, davlat dasturlarini va maxsus jamg'armalar faoliyatini moliyalashtirish va moniroting qilish bo'limi boshlig'i o'rinbosari
15.	R.Kuriyazov	—	Davlat Kadastrlari palatasi Bino-inshoot Davlat kadastri bo'limi boshlig'i
16.	O.Xatamov	—	Toshkent viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi bo'lim boshlig'i

17.	O.Ortiqboyev	—	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari
18.	B.Xusanbayev	—	Toshkent viloyati hokimligi yer uchastkalarini olib qo‘yish va kompensatsiya berish ishlarini muvofiqlashtirish sho‘‘basi mudiri, <i>komissiya kotibi</i>

Izoh: Kommissiya a‘zolaridan biri boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli majburiyatlarni bajarish yuklatilgan shahslar kiritiladi.

Kommissiya zarur hollarda boshqa idoralar rahbarlari va mutaxassislarini jalb etish huquqiga ega.

Yuqoridagi viloyat boshqarma va tashkilotlarning hududlardagi vakillari shuningdek tuman (shahar) hokimlarining birinchi hamda qurilish maslalari bo‘yicha o‘rinbosarlari hududiy komissiya a‘zolari hisoblanadi.

Asos: O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 29 iyundagi 781-son [Qonuni](#).